

Date: 1<sup>st</sup> November-2025

**O'ZBEKISTONDAGI YASHIL IQTISODIYOT ISLOHOTLARI VA ERISHILGAN  
NATIJALAR**

Muallif: **Karimov Rasulbek Davronbek o'g'li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti KB-62 guruh talabasi

s.nazarov@tsue.uz

Ilmiy rahbar: **Ibragimov G'anijon G'ayratovich**

Qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish markazi boshlig'i – Innovatsion  
Menejment kafedrası dotsenti Phd, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

**Annotatsiya:** Mazkur tezisda O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonlari, bu borada amalga oshirilayotgan davlat siyosati, islohotlar, xalqaro hamkorlik loyihalari tahlil qilinadi. Bunda qayta tiklanadigan energiya manbalari, yashil qishloq xo'jaligi, chiqindilarni qayta ishlash va yashil qurilish sohalarida yaratilgan ish o'rinlari misolida iqtisodiy samaradorlikga urg'u beriladi. Tadqiqotda Prezident farmonlari, xalqaro moliya institutlari ma'lumotlari va statistik manbalar asosida tahliliy yondashuv qo'llaniladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda yashil iqtisodiyot sektori barqaror rivojlanib bormoqda va kelajakda ekologik barqarorlikni kengaytirish va yangi ish o'rinlari imkoniyatlarini kengaytirish salohiyatiga ega.

**Kalit so'zlar:** Yashil Iqtisodiyot, Ish o'rinlari, iqtisodiy taraqqiyot, Jahon banki, qayta tiklanadigan energiya manbalari, O'zbekiston, atrof-muhit, yashil loyihalar.

**Kirish**

Bugungi kunda butun dunyoda yashil iqtisodiyotga talab haddan tashqari oshib bormoqda bunga turlicha sabablar mavjud. Yer yuzidagi energiya resurslarining keskin kamayib ketayotgani, insonlar va texnologiyalardan chiqayotgan tabiatga bo'lgan chiqindilar, ilm-fanning rivojlanishi ham butun insoniyatni birgalikda global iqlim muommolarini turli yangicha zamonaviy yechimlar qidirishga majbur qilmoqda. Bunda hamma mamlakatlar va jamiyatlar ham teng miqyosda harakat qilyabdi deyish juda qiyin, qaysiki rivojlangan masalan, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, AQSh kabi mamlakatlarda sanoatdan va texnologik rivojlanishdan to'yinish natijasida iqtisodiyotining katta qismini ekologik toza muhitga o'tkazish boshlangan. Misol uchun Germaniya 2020-yildan buyon hozirgacha to'liq atom elektr stansiyasidan voz kechib qayta tiklanadigan quyosh, shamol elektr stansiyalariga o'tib bo'ldi. Undan tashqari 2050 gacha issiqxona gazlarining 85% gacha miqdorini havoga chiqishini cheklashni rejalashtirgan. Yaponiyada bo'lsa aylanuvchi iqtisodiyot deb nomlangan 100% plastikdan voz kechishga maqsad qilingan islohot joriy qilingan. Shu kabi ko'plab iqtisodiy taraqqiyotga erishgan mamlakatlar yashil islohotlarni ancha ertachiroq boshlagan va hozirgacha katta o'zgarishlarga erishib kelmoqda.

Ammo O'zbekiston kabi endi rivojlanayotgan, hali yangi sanoatlashishni boshlagan mamlakatlar o'zining yashil iqtisodiyot bo'yicha katta yutuqlari bilan maqtana olmasa



**Date: 1<sup>st</sup> November-2025**

ham, biroq kelajak rivojlanish strategiyalarini aynan yashillik bilan bog'lamoqda. Bu xalqaro hamjamiyat, ayniqsa BMTning ijtimoiy moliyalashtiruvchi Jahon Banki va xalqaro valyuta jamg'armalari uchun ijobiy signal hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili** - Ushbu mavzu bo'yicha ko'plab xalqaro va mahalliy ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jahon Banki, Yevropa taraqqiyot banki va BMTning boshqa tashkilotlari O'zbekistonda yashil iqtisodiyot bo'yicha katta maqolalar e'lon qilgan. Shu jumladan mahalliy ilmiy izlanuvchilarda Phd To'liqin Bobojonova va Professor Aziza Irmatovalarning ilmiy ishlari ayniqsa shu mavzuni keng miqyosda tahlil qilganlar.

**Tadqiqotning maqsadi** - O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, xalqaro hamkorlik va ularning iqtisodiy-ijtimoiy natijalarini tahlil qilishdan iborat.

**Metodologiya** - Ushbu ishda asosan deskriptiv va tahliliy yondashuvlardan foydalanilgan. Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019-yildagi PQ-4477-son va 03.12.2022-yildagi PQ-436-son qarorlari shuningdek, 2030-yilgacha mo'ljallangan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" asosli manba sifatida o'rganildi.

Bundan tashqari, Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD), va "ACWA Power" kompaniyasining loyiha ma'lumotlari, shuningdek O'zbekistondagi rasmiy stsstatika va tahliliy hisobotlardan olingan. Ma'lumotlar solishtirma tahlil usulida ishlanib, ish o'rinlari yaratilishiga ta'siri bo'yicha tahlil qilib chiqildi.

### **Natijalar**

Misol tariqasida, O'zbekistonning bosh rejasi bo'lgan 2030-yilgi strategiyasida 2030-yilgacha "yashil" iqtisodiyotga o'tish bo'yicha ishlab chiqilgan Harakatlar rejasiga muvofiq, O'zbekiston yashil texnologiyalarni joriy etish, resurslarni ta'minlash, energiyani qayta ishlash, muqobil energiyani yaxshilash hamda atrof-muhitni himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshiradi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019-yilgi PQ-4477-son qaroriga muvofiq, 2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida qaror qabul qilindi. Shuningdek, 2022-yilda qabul qilingan PQ-436-son qarori asosida bu boradagi islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari belgilandi. Buning natijasida mamlakatimizda yashil tarmoqlar kengayib, yangi ish o'rinlari yaratilmoqda.

| <b>Yo'nalish</b>           | <b>Loyiha/Tashkilot</b>        | <b>Yaratilgan ish o'rinlari(taxminan)</b> | <b>Izoh/Manba</b>          |
|----------------------------|--------------------------------|-------------------------------------------|----------------------------|
| Qayta tiklanadigan enrgiya | EBRD va Saudi ACWA power bilan | 10000 dan ortiq vaqtinchalik ish          | Qurulish texnik ko'rsatish |

**Date: 1<sup>st</sup> November-2025**

|                                                                 |                                                                |                                                     |                                                                          |
|-----------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------|
| (quyosh,Shamol)                                                 | hamkorilikda qurilgan 900MW quvvatli stansiyalar               | o'rinlari, 2000 dan ortiq doimiy                    | bosqichlarida yaratilgan <sup>5</sup>                                    |
| Qishloq xo'jaligi (yashil bog'dorchilik, tomchilatib sug'orish) | Horticultural Development Project (Jahon Banki)                | 34500doimiy,22000 mavsumiy, 5000 logistika sohasida | Qishloq joylarda barqaror bandlikni oshirish <sup>6</sup>                |
| Chiqindini qayta ishlash (waste to Energy)                      | 4,7 tonna chiqindini qayta ishlash loyihasi                    | 3000-5000                                           | Texnik mutaxassislar va operatorlar uchun yangi ish joylari <sup>7</sup> |
| Yashil qurulish va shahar loyihalari                            | Tashkent "Green city" tashabbusi va ekologik bino standartlari | 2500+                                               | Qurulish, dizayn, energiya samaradorligi muhandislari <sup>8</sup>       |
| Suv resurslarini tejash va ekoturizm                            | Aralbo'yi ekologik tiklanish dasturi                           | 1500-2000                                           | Qayta o'rmonlantirish, turizm infratuzilmasi <sup>9</sup>                |
| Yashil moliyalashtirish va innovatsiya startaplari              | GEFF ( Green Economy Financing Facility)                       | 1000+                                               | Banklar,moliya va texnologiya startaplari orqali <sup>10</sup>           |

### **1-rasm**

1-rasmda 2020–2025-yillarda mamlakatimizda yashil iqtisodiyot sohasida turli xalqaro loyihalar va ichki rivojlanish tashabbuslari asosida jami 50–60 mingta yangi ish o'rinlari yaratilganini ko'rishimiz mumkin. Eng ko'p ish o'rinlari qishloq xo'jaligida – 34,5 mingta doimiy va 22,0 mingta mavsumiy ish o'rinlari yaratildi. Qayta tiklanadigan energetika sohasida 10 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratildi. Suv resurslarini tejash maqsadida Aralbo'yi ekologik tiklanish dasturi asosida Orol dengizi hududida katta o'rmonlashtirish tizimi joriy qilingani va bu orqali 2000 dan ziyod ish o'rni yaratilgani butun dunyo tomonidan e'tirof etilmoqda. Chunki dunyo ahliga malumki, Orol fojeasi keng ko'lamli ta'sirga ega va darhol bartaraf etilishi zarur bo'lgan muammo sanaladi.

### **Muhokama**

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda yashil iqtisodiyot bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Xususan qayta tiklanadigan energiya manbalarini shamol, quyosh va hidro elektr stansiyalarini qurishda va loyihalarni moliyalashtirishda sezilarli natijalarga erishilmoqda. Shunga qaramay bu sohada ayrim muommolar ham yuq emas, masalan yashil loyihalarni moliyalashtirishning sustligi va zamonaviy

<sup>5</sup> <https://www.mift.uz>

<sup>6</sup> <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan>

<sup>7</sup> <https://www.ebrd.com>

<sup>8</sup> <https://www.undp.org/uzbekistan>

<sup>9</sup> <https://www.adb.org/countries/uzbekistan>

<sup>10</sup> Spot.uz, Gazeta.uz, Podrobno.uz (2021–2024-yillardagi tahliliy maqolalar)

**Date: 1<sup>st</sup> November-2025**

texnologiyalarni joriy etishda malaka va ko'nikmalarning yetishmasligi shular jumlasidandir.

Yana qo'shimcha ravishda, Ayni paytda davlatimiz tomonidan yaratilgan qulay huquqiy sharoitlar, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik, yoshlar o'rtasida yashil startaplar ko'payib borayotgani bu soha istiqbolli ekanidan dalolatdir. Kelgusida O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish yangi ish o'rinlari yaratish, eksport salohiyatini kengaytirish, ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lishi kutilmoqda.

### **Xulosa va takliflar**

Bundan shuni xulosa sifatida aytish mumkinki, hozirgi vaqtda O'zbekistonda yashil taraqqiyotga katta qadamlar allaqachon davlat raxbarlarimiz tomonidan qo'yib bo'lingan va bu bo'yicha uzoq yillik strategiya rejalashtirilgan. Va yaqin 4-5 yil ichida bu sohada katta yutuqlarga erishildi, 60 mingdan ortiq yangi yashil ish o'rinlari yaratildi. Undan tashqari yashil startaplar, yoshlar tomonidan ishlab chiqilayotgan, davlat miqyosida keng ko'lamda moliyalashtirilmoqda.

Taklif sifatida shuni takidlash joizki, mamlakatga shu soxada yanada ko'proq investitsiyalar olib kelish kerakligini va bunga katta xalqaro kompaniyalarni jalb qilish zarurligini alohida ta'kidlash lozim. Yana qo'shimcha sifatida statistik ma'lumotlar bunda juda muhim rol o'ynaydi, shu sababli aniq analitik shuningdek ochiq statistik hisobotlar yo'ritilishi juda muhim sanaladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Jahon banki 2022 O'zbekiston yashil iqtisodiyot sari: <https://openknowledge.worldbank.org/bitstreams/6eb1bd1d-fe22-5ca3-acd0-87073c96488d/download>
2. GLOBAL YASIL IQTISODIYO'T VA UNING O'ZBEKISTONDAGI O'RNI: <https://innoist.uz/index.php/ist/article/view/739>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.12.2022 yildagi PQ-436-son: <https://lex.uz/ru/docs/-6303230>
4. <https://www.mift.uz>
5. <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan>
6. <https://www.ebrd.com>
7. <https://www.undp.org/uzbekistan>
8. <https://www.adb.org/countries/uzbekistan>
9. Spot.uz, Gazeta.uz, Podrobno.uz (analytical articles for 2021–2024)

